

O‘ZBEKISTON RESPULIKASINING TA’LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN KONSTITUTSION ISLOXOTLAR

Mutallibjonov Usmonjon Ixtiyorjon o‘g‘li

Andijon davlat Pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qtuvchisi

“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M. Mirziyoyev

Annotatsiya: Maskur maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi ta‘lim tizimidagi islohotlarni bugungi kunda amalga oshiriloyotkanligi va qay darajada amalga oshiriloyotganligi yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: bilim, ko‘nikma, malaka, ta‘lim, texnologiya, metod, Ijtimoiy munosabatlar, kasbiy pedagogika, didaktika,

Abstract: The master’s thesis highlights the extent to which reforms in the education system in the Republic of Uzbekistan can be implemented today.

Keywords: knowledge, skills, competence, education, technology, method, social relations, professional pedagogy, didactics,

Аннотация: В магистерской диссертации подчеркивается, в какой степени реформы в системе образования в Республике Узбекистан могут быть реализованы сегодня.

Ключевые слова: знания, умения, компетентность, образование, технология, метод, социальные отношения, профессиональная педагогика, дидактика.

Insonning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishida ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Ta'limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy mahlumotga bo'lgan talab va ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi g'oyalarga qarab kishilik jamiyatining turli davr (bosqich)larida ta'limning mohiyati, maqsadi, mazmuni tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o'zgarib, takomillashib boradi. Ta'lim mohiyatiga ko'ra bu jarayonda ishtirok etuvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining natijasidir. Ta'lim jarayonida shaxsning dunyoqarashi, qobiliyati, fazilat (xislat)lari o'zgaradi. Ta'lim jarayonida kishilik jamiyatining ijtimoiy-tarixiy tajribalari tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtiriladi va shu yo'l bilan u avlodlar orasidagi mahnaviy-madaniy, ijtimoiy, ijtimoiy vorislikni taminlaydi. Ta'limning metodologik asosini dealektik bilish nazariyasi tashkil etadi. Kasbiy pedagogika – umumiy pedagogikaning bir sohasi bo'lib, u tarbiya, ta'lim, o'qitish haqida qator nazariy va amaliy mahlumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug'ullanadi. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi bir necha bo'limlariga bo'linib, bu bo'limlarda kasbiy pedagogikaning asoslari va muhim masalalarini, yahni kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari, mehnat pedagogikasi, kasb-hunar didaktikasi kabi masalalarni qamrab oladi. SHuningdek ular kasb-hunar tarbiyasining ijtimoiy psixologik shart-sharoitlari, kasb-hunar ta'limi nazariyasi va kasb-hunar ta'limi huquqi o'rganiladi. Kasb ta'lim texnologiyasi - butun o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimi usuli bo'lib, u maqsadga erishishga yo'naltirilgan holda insonlarning o'rganish qobiliyati va ular o'rtasida muloqot to'g'risidagi

tadqiqotlar natijasiga hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug'ullanishga asoslanadi. Didaktika – grekcha didaskien so‘zidan olingan bo‘lib, o‘qitaman, o‘qishni o‘tqataman mahnolarini anglatadi. Shunga ko‘ra didaktika – bu o‘qitish nazariyasidir. Didaktika ukitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maksadlarini ishlab chikadi. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqdaligi. So‘nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar va texnologiyalar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, ta'lim tizimidagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etilmoqda:

- 1) maktabgacha ta'lim sohasida;
- 2) umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta'lim;
- 3) oliy ta'lim;
- 4) oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- 5) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida boshlanishi ham bugungi kunda ushbu sohaga alohida e'tibor berilayotganligidan darak bermoqda. Bugungi globallashtirish jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Mazkur sohaga bo‘lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi sifatida **“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida”**gi Qonunni keltirishiz mumkin. Mazkur Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari va boshqa shunga o‘xshash masalalar belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, yurtimizda ilk bor **Maktabgacha ta’lim vazirligining** ham tashkil etilganligi ushbu sohadagi asosiy islohotlardan biri bo’ldi desak, aslo mubolag’a bo’lmaydi. So’ngi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va modernizasiya qilish bo’yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Xususan, ta’lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – **“Ta’lim to’g’risida”**gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo’ldi. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo’yildi.

Shuningdek, Qonunga ko’ra, davlat oliy ta’lim, o’rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o’rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo’ldi. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga lisenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo’ldi. Ushub Qonun bilan 1997 yil 29 avgustdagi “Ta’lim to’g’risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi qonunlar o’z kuchini yo’qotdi.

Shunga ko’ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta’lim sohasida qabul qilingan eng zaruriy hujjatlardan biri bo’ldi deb bemalol ayta olamiz.

Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, *“farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo’lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko’plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug’iladi. Shunday ekan, **Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi** desam, o’ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo’llab-quvvatlaydi”*.

Bundan tashqari, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma’lum qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Hususan, O‘zbekiston

Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizasiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi** mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ilm-fanning yirik o‘choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Bugungi kunda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so‘nggi 4 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta’lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o‘quv yurtlarining soni 125 taga yetdi. Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta’minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta’lim muassasasi o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazildi.

XULOSA

Ta’lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir. Yangi O‘zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta’lim-tarbiya ishlarini oqilona yo‘lga qo‘yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Har qaysi davlatning taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk, ilmiy va texnikaviy bilimlar hamda murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli odamlar hal etadi. Kelajak taqdirimizga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omil fan-texnika, madaniyat, ma’rifat, ta’lim-tarbiya,

ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar borasidagi yangiliklar va yutuqlarni, jahon mamlakatlari tajribalarini keng qo‘lashda o‘rganish, rivojlantirish va hayotga joriy etishdan iborat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning O‘qtuvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan nutqi
2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Ta’lim to‘g‘risi”dagi qonuni Toshkent 2020-yil
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni.
4. Internet materiallari